O'zbekiston kon-metallurgiya sanoatining rivojlanish yo'nalishlari va hozirgi bosqichdagi holatini o'rganish borasida mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati yildan-yilga oshib borayotganini ko'rsatadi. So'nggi yillarda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan konchilik sohasining resurs salohiyati, texnologik modernizatsiya jarayonlari, investitsiya oqimlari va metallurgiya kompleksini diversifikatsiya qilishga qaratilgan ilmiy mulohazalar keng yoritilmoqda. Adabiyotlarning asosiy qismi kon-metallurgiya sanoatini iqtisodiy o'sish jarayonlarining tarkibiy qismi sifatida ko'rib, tabiiy resurslar, minerallarni qayta ishlash texnologiyalari, eksport salohiyati va sohaning global zanjirdagi o'rni tahlil qiladi. Mahalliy olimlarning ilmiy ishlari esa O'zbekiston sharoitiga mos iqtisodiy mexanizmlar, davlat siyosati, islohotlarning samaradorligi hamda kon-metallurgiya korxonalarining faoliyatini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini mustahkamlagach, kon-metallurgiya sanoati korxonalari to'liq ravishda mamlakat tasarrufiga o'tkazildi va shu jarayondan boshlab ushbu sohaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining tashkil etilishi kabi masalalar tarixchi olimlar va sanoat tadqiqotchilarining diqqat markaziga aylandi. Ayniqsa, kon-metallurgiya sanoati korxonalarining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, ularning tarixiy ildizlari va zamonaviy rivojlanish sur'atlari mustaqillikdan keyingi davr ilmiy izlanishlarida kengroq yoritila boshlandi. Shu bilan birga xalqaro tajribalar, sobiq ittifoq davridagi sanoat siyosati va hududiy ishlab chiqarish markazlarining shakllanishi kabi omillar ham tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmadi.

Ushbu jarayonlarni o'rgangan olimlarning yondashuvlari turlicha bo'lib, har bir tadqiqot kon-metallurgiya sanoatining ma'lum bir jihatiga bag'ishlangan. Masalan, R.Qarshiyev [1] o'z tadqiqotlarida kon-metallurgiya tarmoqlari uchun yuqori malakali ishchi-xodimlarni tayyorlash tizimi, kadrlar siyosati va ularning mehnat faoliyati bilan bog'liq masalalarni tahlil qiladi. I.Haydarov [2] esa SSSR xalq xo'jaligi tarkibida O'zbekiston sanoatining tutgan o'rnini, uning iqtisodiy salohiyatini hamda respublika sanoatining ittifoq miqyosidagi strategik ahamiyatini chuqur o'rgangan. Shuningdek, J.Peremqulov [3] Toshkent viloyati sanoat shaharlari shakllanishi, ularning rivojlanish omillari va urbanizatsiya jarayonida metallurgiya sanoatining tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratadi.

Kon-metallurgiya sanoati korxonalarining iqtisodiy ahamiyati A.Aminova [4] va Sh.Xoliqulova [5] ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan bo'lib, olimlar ushbu sohaning yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi, eksport salohiyati, yuqori qo'shimcha qiymat yaratishdagi roli va hududlar iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qiladilar. Navoiy viloyatining sanoat tarixida kon-metallurgiya korxonalarining tutgan o'rni va ularning hududiy iqtisodiy muvozanatni shakllantirishdagi ahamiyati U.Narzullayev [6] tadqiqotlarida bayon qilingan. Korxonalarning soliq tizimidagi o'rni va davlat budjetiga qo'shadigan hissasi esa N.Djulibekov [7] tomonidan o'rganilgan bo'lsa, G.Raximova [8] O'zbekistondagi sanoat korxonalarining ekologik muammolari, atrof-muhitga ta'siri va ekologik xavfsizlik masalalarini yoritadi. Geologiya sohasining tarixiy rivoji, foydali qazilmalarni izlash jarayonlarining shakllanishi va geologik maktablarning rivojlanish bosqichlari O.Baxtiyorzoda [9] izlanishlarida batafsil tahlil qilingan.

Mustaqillikdan keyingi yillarda O'zbekistonda kon-metallurgiya sanoati korxonalarining zamonaviy rivojlanish jarayonlari, modernizatsiya ishlarining ko'lamini va yangi texnologik liniyalarning joriy etilishi Y.Arapbayev [10] tomonidan tayyorlangan turli majmualar va hisobotlarda aks etadi. Xususan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'sishi, eksport geografiasining kengayishi, ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi va investitsion loyihalarning amalga oshirilishi N.Djulibekov [11] tadqiqotlarida batafsil o'rganilgan.



Shu bilan bir qatorda kon-metallurgiya tarmog'i bo'yicha yaratilgan fundamental manbalar ham alohida ahamiyatga ega. Professor Q.Sanaqulovning [12] O'zbekiston kon-metallurgiya sanoati va, xususan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyatiga bag'ishlangan asarlarida tarmoqning shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalarining rivojlanishi va tarmoqning iqtisodiy salohiyati haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Ushbu asarlar nafaqat tarixiy manba sifatida, balki hozirgi zamon sanoat siyosatini o'rganishda amaliy qo'llanma vazifasini ham bajaradi.

T.Alimardonov [13] ham o'z monografiyasida O'zbekistonda oltin konining vujudga kelishi tarixi haqida batafsil ma'lumot beradi: "... 60–70 yillarda Sharof Rashidovning shaxsan tashabbusi bilan respublikada yirik oltin qazib ishlab chiqarish sanoati yaratiladi. Oltinni qayta ishlab chiqarish fabrikalari, oltin saralash kombinatlari, shuningdek mis rudasini qayta ishlash kombinatlari foydalanishga topshiriladi. Shu bilan birga jahon andozalariga javob beradigan yuqori sifatli oltin olinadi. Lekin bu boyliklar to'laligicha Markazga olib ketilar, O'zbekistonga esa hech qanday nafi tegmas edi. O'zbekiston o'z zaminidan olinadigan birorta boylikning xo'jayini emasdi va uning ne'matlaridan mustaqil foydalana olmasdi. O'zbekistonning hayotiy muhim tarmoqlari va yirik korxonalarining aksariyat qismi (qariyb 70%), shu jumladan rangli metallurgiya korxonalari bevosita ittifoq vazirliklariga bo'ysunardi. Oltin, uran, rangli metallar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olish va tashib ketish bilan markaziy organlar O'zbekiston rahbar organlarining rozilgisiz va ularning nazoratisiz shug'ullanishardi".

O'zbekiston kon-metallurgiya sanoati korxonalarining tarixi, rahbarlarning faoliyati va ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonlari ko'plab xotira va esdalik kitoblarda aks ettirilgan. O.Malgin [14], V.Sigedin [15], L.Vetshteyn [16], S.Rizayev [17], L.Anashkin [18], B.Shalatonin [19], Sh.Sharopov [20] kabi mualliflar o'z esdaliklarida kombinatlarning tashkil topishi, ishlab chiqarishning ilk bosqichlari, kadrlar tayyorlashdagi qiyinchiliklar va o'sha davrda amalga oshirilgan sanoat siyosati haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Bu xotiralar nafaqat tarixiy voqealarni yoritadi, balki tarmoqning rivojlanish jarayonini jonli misollar orqali ko'rsatib, ilmiy izlanishlar uchun qo'shimcha manba sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi kon-metallurgiya sanoatining rivojlanish tendensiyalari va hozirgi holatini chuqur hamda tizimli o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvlar majmuasini o'z ichiga oladi. Mazkur mavzuni o'rganishda avvalo tarixiy-tahliliy yondashuv qo'llanilib, mustaqillikdan oldingi va keyingi davrlarda kon-metallurgiya tarmog'ining shakllanishi, rivojlanishi va modernizatsiya jarayonlari qiyosiy asosda tahlil qilindi. Shuningdek, statistik metodlar orqali tarmoqning ishlab chiqarish hajmlari, eksport ko'rsatkichlari, investitsiya oqimlari va iqtisodiy samaradorlik darajalari mavjud rasmiy ma'lumotlar asosida qayta ishlanib, ularning o'zgarish dinamikasi izchil o'rganildi. Ushbu jarayonda Navoiy kon-metallurgiya kombinati hamda Olmaliq kon-metallurgiya kombinati kabi yirik korxonalar faoliyati misol sifatida tanlanib, ularning rivojlanish modellari, boshqaruv tajribasi va iqtisodiy natijalari tahlilga tortildi. Hududiy yondashuv asosida kon-metallurgiya tarmog'ining viloyatlar miqyosida iqtisodiy muvozanatni shakllantirishdagi roli o'rganildi. Tadqiqot davomida tarmoqning hozirgi holatini baholash uchun ekspert suhbatlari, ochiq manbalardagi tahliliy hisobotlar va ilmiy ishlar asosiy metodik manba sifatida qo'llanildi. Mazkur yondashuvlar tarmoqning real holatini aniqlash, mavjud muammolarni ko'rsatish va kelajak istiqbollari belgilash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda kon-metallurgiya sanoati mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, u mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlat tomonidan bosqichma-bosqich isloh etildi, modernizatsiya qilindi va yuqori texnologiyalar asosida qayta tashkil etildi. Mazkur soha nafaqat ichki iqtisodiyotning tayanch tarmog'i, balki davlatning xalqaro iqtisodiy aloqalar, eksport salohiyati va valyuta tushumlari bo'yicha eng ustuvor sektorlardan biri sifatida shakllandi. Mustaqillikning dastlabki yillari murakkab siyosiy-iqtisodiy sharoitlar bilan kechgani bois, kon-metallurgiya tarmog'i ham tubdan qayta tashkil etishni talab qildi. Ayniqsa, sobiq ittifoq davrida ushbu sohaning barcha boshqaruv, moliya, ta'minot va ishlab chiqarish jarayonlari markazlashtirilgan bo'lgani sababli sanoat korxonalari o'zaro qattiq bog'langan edi. Mustaqillik e'lon qilingach, bu bog'liqlik iqtisodiy qaramlik shaklida namoyon bo'ldi hamda korxonalar ishlab chiqarish va moliyaviy barqarorlik bo'yicha qator qiyinchiliklarga duch keldi.

Shu bilan birga davlat tomonidan qabul qilingan muhim qarorlar tarmoqning strategik ahamiyatini inobatga olgan holda, uning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratildi. 1991-yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinati O'zbekiston tasarrufiga o'tkazildi, 1992-yildan boshlab Zarafshon–Uchquduq mintaqasini rivojlantirish dasturi amalga oshirila boshlandi. Keyinchalik yangi konlar va gidrometallurgiya zavodlarining ishga tushirilishi tarmoqning zamonaviy poydevorini yaratdi. Xususan, "NKMK" AJ faoliyatining kengayishi, yangi konlarning o'zlashtirilishi va ishlab chiqarish hajmining yildan-yilga oshib borishi iqtisodiyotning valyuta tushumlari hamda



eksport salohiyatini sezilarli darajada mustahkamladi. Kombinatning modernizatsiya dasturlari natijasida ruda qayta ishlash quvvatlari bir necha barobar ko'paydi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab qabul qilingan davlat dasturlari oltin va boshqa qimmatbaho metallarni ishlab chiqarishning oshishiga xizmat qildi.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati ham mintaqaning yirik sanoat markaziga aylangan holda mis, rux, molibden, oltin va boshqa mahsulotlarning asosiy eksport resursi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Bir qator konlarning o'zlashtirilishi, zavodlarning modernizatsiya qilinishi, xalqaro sertifikatlarning olinishi hamda yangi texnologiyalarning joriy qilinishi tarmoqning xalqaro raqobatbardoshligini oshirdi. "O'zbekiston metallurgiya kombinati"da po'lat ishlab chiqarishning qayta tiklanishi esa metallurgiya sanoatining umumiy salohiyatini yanada mustahkamladi.

Mustaqillikdan keyingi davrda kon-metallurgiya sanoati nafaqat iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylandi, balki minglab ish o'rinlarini yaratish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yangi infratuzilmalarni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Bugungi kunda ham tarmoqda yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda, ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda. Quyidagi jadval aynan shu tarixiy jarayonlar, qarorlar, modernizatsiya bosqichlari va iqtisodiy natijalarni yoritadi (1-jadval):

1-jadval. O'zbekistonda kon-metallurgiya sanoatining rivojlanishi¹

Yil	Hodisa / Qaror	Mazmuni va Ahamiyati
1991-yil	NKMKning O'zbekiston tasarrufiga o'tkazilishi	Kombinat mustaqil boshqaruvga o'tib, milliy boylik sifatida qayta tashkil etildi
1991-yil, oktabr	I.Karimovning Zarafshonga tashrifi	Murakkab sharoitda NKMKni qo'llab-quvvatlash va subsidiyalar ajratilishi belgilandi
1992-1995	Zarafshon–Uchquduq mintaqasini rivojlantirish dasturi	Infratuzilma, ishlab chiqarish va ijtimoiy tizimni barqarorlashtirish boshlandi.
1993-yil	Leninobod kon-kimyo kombinatining 5-kon boshqarmasi NKMKga o'tkazildi	Uran ishlab chiqarish imkoniyatlari kengaytirildi
2002-yil	"Zarmitan", "Marjonbuloq", "Qoraqo'ton" konlari NKMK tarkibiga kiritildi	Oltin ishlab chiqarish va xomashyo bazasi kengaydi
2009-yil	4-gidrometallurgiya zavodi qurilishi boshlandi	Yiliga 1,8 mln tonna ruda qayta ishlash quvvati yaratildi.
1991-2016-yillar	Ruda qayta ishlash hajmining bosqichma-bosqich o'sishi	20 mln t (1991) → 38,6 mln t (2016)
2015-2021-yillar	Mahalliyashtirish dasturi kengaydi	Loyiha qiymati 3 barobar oshdi.
2017-yil	PQ-2713 qarori — qimmatbaho metallar dasturi	23 ta investitsion loyiha boshlandi.
2017-2023-yillar	Oltin va kumush ishlab chiqarish o'sishi	Oltin – 26%, kumush – 46%.
2022-yil	15,4 trln so'm sof foyda	Rentabellik 54% ga yetdi.
2030-yil	10 dan ortiq yangi loyihalar rejalashtirilgan	NKMKning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi.
1994-yil	OKMKda ishlab chiqarishni barqarorlashtirish	Kumush "Optimal yetkazib beruvchi" maqomini oldi.
2002-yil	Angren, Chodak, Kouldi konlari OKMKga o'tkazildi	Oltin ishlab chiqarish ko'paydi.
2004-2015-yillar	Ko'plab konlar modernizatsiya qilindi	Ishlab chiqarish quvvati oshdi.
2010-yil	"Xondiza" majmuasi ishga tushdi	Yangi konlarni o'zlashtirish bosqichi.
2017-yil	"Yoshlik-1", "Yoshlik-2" konlari o'zlashtirildi	Kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayoni boshlandi.
2020-yil	PQ-4731 qarori	Rangli metallar ishlab chiqarish kengaydi.
2023-yil	"Uch quloq" koni bo'yicha memorandum	Turkiya bilan hamkorlikda qayta tiklash loyihasi boshlandi.
1992-2002-yillar	O'zbekiston metallurgiya kombinati modernizatsiyasi	Po'lat ishlab chiqarishning qayta tiklanishi va kengayishi.

1 O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tayyorlandi



Yuqoridagi jadval O'zbekistonda kon-metallurgiya sanoatining mustaqillikdan hozirgi davrgacha bo'lgan rivojlanish jarayonlarini tizimli ko'rinishda ifodalaydi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, bu soha mamlakat iqtisodiyotining eng barqaror, investitsion jozibador va strategik ahamiyatga ega tarmog'iga aylangan. Jadvalda qayd etilgan qarorlar, investitsion dasturlar va modernizatsiya jarayonlari jamlanib, butun tarmoqning to'liq transformatsiyasini aks ettiradi. Dastlabki bosqichda qabul qilingan qarorlar tarmoqning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda modernizatsiya, ilmiy-texnik yangilanish, konlarning o'zlashtirilishi va xalqaro hamkorlikni kengaytirish asosiy yo'nalishlar sifatida shakllandi.

1991–2000-yillar industrial mustaqillikni tiklash davri bo'lib, ushbu yillarda “NKMK” va “OKMK”ning boshqaruv tizimi tubdan yangilandi, asosiy konlar milliy iqtisodiyot tasarrufiga o'tkazildi. Bu jarayon sanoatni markazlashgan boshqaruvdan xoli qilish bilan birga, tarmoqning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qildi. Ayniqsa, subsidiyalar, davlat dasturlari va yirik infratuzilmaviy loyihalar og'ir texnologik jarayonlarning izchil davom etishini ta'minladi.


2000–2016-yillar modernizatsiya va quvvatlarni kengaytirish davri bo'lib, ushbu bosqichda ruda qayta ishlash hajmining bir necha barobar ortgani jadvalda yaqqol aks etgan. Yangi gidrometallurgiya zavodlarining qurilishi, konlarning “NKMK” AJ va “Olmaliq KMK” AJ tarkibiga qo'shilishi xomashyo bazasining kengayishiga olib keldi. Bu esa oltin, kumush, mis, rux va boshqa qimmatbaho metallar ishlab chiqarish salohiyatini oshirdi. Ayniqsa, ushbu yillarda ilmiy-texnik yordam va xalqaro ekspertiza jalb qilinishi texnologik jarayonlarning sifatini oshirdi.

2017–2023-yillar jadal investitsion rivojlanish davri bo'lib, davlat tomonidan qabul qilingan qimmatbaho metallarni ishlab chiqarishni oshirish dasturlari katta iqtisodiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Jadvaldagi raqamlar oltin ishlab chiqarishning 26 foizga, kumush ishlab chiqarishning 46 foizga oshganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, rentabellikning 54 foizga yetishi sanoat korxonalarining bozor sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashganligini anglatadi. Yangi konlar — “Yoshlik-1”, “Yoshlik-2”, “Uch quloch” va “Xondiza” kabi loyihalar bu tarmoqning kelajak bo'yicha yuqori strategik istiqbolga ega ekanini tasdiqlaydi.

Tahlil shuni anglatadiki, kon-metallurgiya sanoati nafaqat iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri, balki eksport salohiyatini kengaytiruvchi, valyuta tushumlarini ko'paytiruvchi, mintaqaviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi va bandlikni oshiruvchi muhim sektor sifatida shakllangan. Jadvalda keltirilgan har bir qaror va loyiha sanoatning keyingi yillarda yanada rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Oxirgi yillarda O'zbekiston sanoati tarkibida metallurgiya tarmog'ining roli sezilarli darajada oshib borayotgani kuzatilmoqda. Bu jarayon mamlakatda olib borilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar, ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, yangi konlarni o'zlashtirish va xomashyo bazasini kengaytirishga qaratilgan investitsion siyosat bilan chambarchas bog'liq. Metallurgiya sanoati nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim drayveri, balki eksport salohiyatini kengaytirish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish va sanoat tarmoqlarining barqarorligini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. 2020–2024-yillarga oid statistik ma'lumotlar tarmoqda izchil o'sish dinamikasi shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Mazkur davrda ishlab chiqarish hajmi bosqichma-bosqich ortib borib, 2024-yil yakunlari bo'yicha 171,4 trln so'mga yetgan. Eng muhim jihatlardan biri shundaki, aynan 2024-yilda metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 22,7 foizni tashkil etgan va fizik hajm indeksi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 foizga oshgan. Ushbu ko'rsatkichlar tarmoqning barqaror rivojlanayotganini, ishlab chiqarish quvvatlari kengayayotganini hamda modernizatsiyaga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning samaradorligini yaqqol aks ettiradi. Quyidagi jadvalda ushbu o'zgarishlar yillar kesimida batafsil yoritilgan (1-rasm):



1-rasm. Metallurgiya sanoati, 2020-2024-yillar [21]



Yuqoridagi grafikdan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston metallurgiya sanoati 2020–2024-yillar davomida izchil o'sish bilan ajralib turadi. Ishlab chiqarish hajmi 2020-yildagi 79,4 trln so'mdan 2024-yilda 171,4 trln so'mga yetib, deyarli ikki barobar oshgan. Buning asosiy sabablari sifatida sektorning modernizatsiya qilinishi, yangi obyektlar ishga tushirilishi, qo'shimcha quvvatlarning yaratilishi va eksport bozorlaridagi talabning ortishini ko'rsatish mumkin.

Fizik hajm indeksining yillik sur'atlari ham o'sib borganini kuzatish mumkin. 2021-yilda 108,1 % bilan eng yuqori ko'rsatkich qayd etilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda FHI nisbatan barqaror 104–107 % oralig'ida saqlanib qolgan. Bu ishlab chiqarish jarayonlarining muvozanatli o'sishini anglatadi. Ayniqsa, 2024-yil yakunlari alohida ahamiyatga ega. Metallurgiya sanoati umumiy ishlab chiqarish tarkibida 22,7 % ulush bilan yetakchi tarmoqlardan biriga aylangan. Ishlab chiqarish hajmining 171 432,1 mlrd so'mga yetishi ushbu sohaning iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yanada oshirgan. FHI bo'yicha 6,3 % o'sish qayd etilgani esa real ishlab chiqarish quvvatlarining kengayganidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston kon-metallurgiya sanoati mustaqillik yillarida mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy drayverlaridan biriga aylandi. Bu davr mobaynida tarmoq nafaqat xomashyo qazib olish bilan cheklanmay, balki yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi konlarni o'zlashtirish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish orqali tubdan yangilandi. Ayniqsa, Navoiy kon-metallurgiya kombinati va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati kabi yirik korxonalar iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirishda va sanoat tarkibiy o'zgarishlarini jadallashtirishda muhim o'rin tutdi. Tarmoqning bugungi holati kon-metallurgiya sanoati nafaqat iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda, balki hududiy rivojlanish, yangi ish o'rinlari tashkil etish, investitsion jozibadorlikni oshirish va texnologik modernizatsiya jarayonlarini tezlashtirishda ham muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, sohaning hozirgi rivojlanish bosqichi hali ham qator islohotlarni taqozo etadi. Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish, ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini ta'minlash, korxonalarda innovatsion boshqaruv modellarini keng joriy etish kabi vazifalar kun tartibida turibdi. Bu jarayonda xorijiy tajribalarni o'rganish, ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro bozorga moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish tarmoqning kelajak istiqbollari uchun muhim omillar sirasiga kiradi.

Maqolada amalga oshirilgan tahlillar kon-metallurgiya sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini mustahkamlash, investitsion muhitni yaxshilash, infratuzilmani modernizatsiya qilish va malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, kon-metallurgiya sanoatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflar shakllantirildi:

- Birinchidan, kon-metallurgiya tarmog'ida geologik-qidiruv ishlarini ko'paytirish, yangi konlarni aniqlash va mavjud konlarning zahira bazasini kengaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Bu nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini barqaror ta'minlaydi, balki tarmoqning uzoq istiqboldagi xomashyo xavfsizligini ta'minlaydi.

- Ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonlariga raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, sun'iy intellekt va IoT texnologiyalarini keng joriy etish lozim. Bu texnologiyalar energiya sarfini kamaytiradi, mahsulot sifatini oshiradi va ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi.

- Uchinchidan, ekologik barqarorlikka alohida e'tibor qaratish, chiqindilarni qayta ishlash, atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarning miqdorini kamaytirish va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini tatbiq etish tarmoqning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi shart.

- To'rtinchidan, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, mutaxassislarning malakasini oshirish va sanoat korxonalari bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu yuqori malakali inson kapitalini shakllantirishga xizmat qiladi va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonini jadallashtiradi.

- Beshinchidan, xalqaro bozorlar bilan integratsiyani kengaytirish, yangi eksport yo'nalishlarini o'zlashtirish va tayyor metall mahsulotlari eksportini oshirish orqali tarmoqning global raqobatbardoshligini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, O'zbekiston kon-metallurgiya sanoati zamonaviy islohotlar, innovatsiyalar va iqtisodiy transformatsiyalar bilan uyg'un tarzda rivojlanmoqda. Taklif etilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish tarmoqning kelgusidagi barqaror o'sishini ta'minlab, uni milliy iqtisodiyotning yetakchi sohalaridan biriga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qarshiev R.M. Navoiy shahrining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti: tajriba va muammolar (1958- 1990 y.): tar. fan. nom. diss. – Andijon, 1996. – 168 b.



2. Haydarov I. O'zbekiston sanoatining Sovet Ittifoqi yagona xalq xo'jaligi kompleksidagi o'rni (1945-1991 yy.): Avtoref. tar. fan. dok. diss. – Toshkent, 2021. – 70 s.
3. Peremkulov J. XX asr o'rtalari – XXI asr boshlarida Toshkent viloyati sanoat shaharlari tarixi: tar. fan. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 48 b.
4. Аминова А. Исторический анализ экономических преобразований в Навоийской области (1991-2007 гг.): автореф дисс. кан. ист. наук. – Ташкент, 2012. – 29 с.
5. Xoliqulova Sh.B. Quyi Zarafshon vohasida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi jarayonlari (1991-2016 y.): tar. fan. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 51 b.
6. Narzullaev U. O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyatining zamonaviy tarixi va barqaror rivojlanish omillari: tar. fan. fals. dok. (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 23 b.;
7. Djulibekov N. Kon-metallurgiya sanoati korxonalarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish: iqt. fan. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 56 b.
8. Raximova G.S. O'zbekistonda sanoat korxonalari faoliyatining ekologik holatga ta'siri (1945–1980 yy.): tar. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 30 s.
9. Бахтиёрзода О. Научное наследие и роль академика И. Х. Хамрабаева в развитии геологии в Узбекистане: Автореф дисс... кан. ист. наук. – Ташкент, 2011. – 30 с.;
10. Арапбаев Е. Қызылқұмдағы топонимдер мен олардың этимологиясы. – Тошкент: Sahhof, 2022. – 320 б. ва б.
11. Djulibekov N. Kon-metallurgiya sanoati korxonalarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. – Toshkent: Sahhof, 2023. – 160 b.
12. Sanaqulov Q. NKM: yangi taraqqiyot yo'lida. – Navoiy: NKMK, 2023. – 100 b.
13. T.Alimardonov. O'chmas sharaf. Sharof Rashidov hayoti va faoliyati tarix ko'zgusida. Monografiya. - T.: «Dono», 2017.-B. 276 b.
14. Мальгин О. Полвека в Кызылкумах. Записки первопроходца. – Ташкент: ЎМЭ, – Ташкент, 2013. – 240 с.
15. Сигедин В. Алмалыкская жемчужина. – Ташкент: Шарқ, 1995. – 145 с.
16. Ветштейн Л. Урановый король (о первом директоре Навоийского горно-металлургического комбината. – Навои: НГМК, 1994. – 162 с.;
17. Ризаев С. Универсальный талант. – Ташкент: Шарқ, 2003. – 237 с.
18. Анашкин Л.Г. Золото Мурунтау. Часть первая. Зарафшан. – Новосибирск: Фундамент, 2009. – С. 64.
19. Шалатонин Б. Тысяча уникамов Кызылкумов. – Навоий: НГМК, 1997. – 184 с.
20. Sharopov Sh., Sharopov F. Ezgulikka baxshida umr. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006. – 160 b.
21. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
